

O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI ALOQALAR: BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI

Ilmiy rahbar: Xikmatov Fathulla Habibullaevich

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti

Siyosat fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

“Siyosiy fanlar” kafedrası

Tadqiqotchi: Yoqubova Shahzoda

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti

“Amaliy siyosatshunoslik” fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston va Xitoy davlatlari o‘rtasidagi uzoq yillik savdo-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar haqida so‘z boradi. Hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib turgan xavfsizlik masalalari borasidagi Xitoy davlati bilan hamkorlik aloqalarga alohida urg‘u berib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari istiqbolda yanada rivojlantirish masalalari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** trasekla, tranzit, integratsiya, texnopark, ilmiy-innovatsion klaster, gumanitar aloqalar.*

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЙСКАЯ НАРОДНАЯ РЕСПУБЛИКА: ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о долгосрочных торгово-экономических и политических отношениях между правительствами Узбекистана и Китая. Особый акцент был сделан на сотрудничестве с китайским государством по вопросам безопасности, которые в настоящее время являются актуальным вопросом. Освещены вопросы дальнейшего развития отношений между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой в будущем.

***Ключевые слова:** Трасекла, транзит, интеграция, технопark, научно-инновационный кластер, гуманитарные отношения.*

RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT.

ABSTRACT

The article talks about the long-term trade-economic and political relations between the governments of Uzbekistan and China. Particular emphasis was placed

on cooperation with the Chinese state regarding security issues, which are currently an urgent issue. Issues of further development of relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in the future were highlighted.

Key words: *trasecla, transit, integration, technopark, scientific-innovative cluster, humanitarian relations.*

KIRISH

O'zbekistonni jahon hamjamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va uning jahon bozorda yetakchi davlatlardan biriga aylantirish – davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ko'pgina davlatlar hamda bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy ilmiy-texnikaviy va madaniy tashkilotlarga ham qo'shildi. O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida ko'plab davlatlar tan olib, Respublikamiz bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatishga tayyorliklarini bildirdilar. Xitoy Xalq Respublikasi birinchilardan bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. 2017-yil O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 14-15-may kunlari Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahrida bo'lib o'tgan “Bir makon, bir yo'l” xalqaro forumida ishtirok etdi va o'z nutqida uning tarixiy ahamiyatini quyidagicha ta'rifladi: “Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning “Bir makon, bir yo'l” konsepsiyasining ajralmas qismi bo'lgan “Ipak yo'li iqtisodiy yo'nalishi”ni tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi, bizningcha, nafaqat tarixiy ruh bilan boyitilgan, balki uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan keng qamrovli tashabbusni ifoda etadi”[1].

O'zbekiston va Xitoy uzoq tarixga, noyob madaniyat hamda ulkan intellektual salohiyatga ega. Bu davlatlararo gumanitar hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida sheriklik munosabatlarini o'rnatish, shuningdek, o'zaro madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishni davr taqozo qilmoqda.

O'zbekiston-Xitoy bilan qadim-qadim zamonlardayoq madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilib kelgan. Ikki mamlakat o'rtasida olib borilgan aloqalarda buyuk ipak yo'li va uning ahamiyati beqiyos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qadimda ipak, choy, chinini, qog'oz buyumlar Xitoydan keltirilgan bo'lsa, yurtimizdan ziravorlar, turli shifobaxsh giyohlar, otlar va hunarmandchilik mahsulotlari olib ketilgan. Madaniyat sohasida ilk o'rta asrlarda Kesh, Toshkent, Toxariston hududidan Xitoyga borgan ashulachilar, raqqoslar ko'p bora tilga olinib, ularning san'atiga qoyil qolingani bilan bog'liq ma'lumotlar Xitoy tarixiy adabiyotlarida keltirib o'tilganligining guvohi bo'lish mumkin. Milliy mustaqillik sharoitida madaniy

aloqalarimiz yangicha ahamiyat kasb etib, ikki mamlakat xalqlari madaniyatini targ'ib etish, o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qila boshladi. Madaniy munosabatlarning davomi va yangi bosqichi sifatida O'zbekistonda Xitoy kunlari, festivallari, turizim imkoniyatlarini namoyish kilish, kinofestivallarning o'tkazilishi, rassomlarning ko'rgazmalari o'z navbatda Xitoyda O'zbekistonni namoyish etuvchi shu turdagi ishlarning amalga oshirilishi deb hisoblash mumkin[2].

O'zbekiston va Xitoyning madaniy munosabatlari o'tgan yillar davomida izchil rivojlanganligini turli manbalarda uchratishimiz mumkin. madaniyat, san'at, sport, ilmiy sohalaridagi munosabatlar yil sayin keng ko'lam va ahamiyat kasb etib borgan. Xususan, Xitoyda O'zbekistonni o'rganish instituti, Alisher Navoiy va Bobur haykallari o'rnatilgan. Har ikki davlatda doimiy ravishda madaniyati kunlari o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, Samarqand va Toshkentda shaharlarida Konfutsiy institutlari ochilganligi yuqoridagi fikrlarimizni asoslaydi . Bu ikki xalqni tarixiy-madaniy munosabatlari, o'zaro qadimiy madaniy va iqtisodiy aloqalarni o'rganish va tahlil etishda katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib hisoblanadi[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, har ikkala mamlakatning o'zaro manfaatdorlik, tenglik, ochiqlikka asoslangan hamkorlik aloqalarini tez sur'atlar bilan rivojlanib borishining zaminida avvalambor, ularning taraqqiyot prinsiplari va tashqi siyosat strategiyasidagi o'xshashlik, yaqinlik hamda maqsad-muddaolarning uyg'unligi holati yotadi[4]

Ta'lim sohasida davlatlar va idoralararo, jumladan, o'zbek va xitoy tillarini o'rganish doirasida talaba va stajyorlar almashish tobora ko'paymoqda. Toshkentda tashkil etilgan Konfutsiy nomidagi institutda har yili 350 dan ziyod tinglovchi saboq oladi. 2010-yilning iyun oyida Xitoy millatlar markaziy universiteti rus tili va Markaziy Osiyo xalqlari tillari fakultetida o'zbek tili bo'limi ochildi. 2012-2013 o'quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o'zbek tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va SHHT doirasida XXR hukumati 2012-2013 o'quv yilida o'zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o'zbekistonlik yetmishga yaqin talaba tahsil olmoqda . Talabalarning almashinishi ilmiy va madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda[5].

Prezident Mirziyoyev bir necha bor ta'kidlaganidek, O'zbekiston Xitoyning har tomonlama ijtimoiy adolatga erishish, tobora ko'proq aholini qashshoqlikdan olib chiqish va o'rta sinfni ko'paytirish, shu orqali umumbashariy farovonlik va tenglikka erishish borasidagi tajribasiga jiddiy qiziqish bildiradi. O'zbekiston "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi butun Yevroosiyo qit'asida transport infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan misli ko'rilmagan rejani yuksak qadrlaydi va qo'llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatning darajasi va xususiyatiga baho berarkan, jumladan, shunday deydi: Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning yaqindagina amalga oshirilgan, xalqlarimiz hayotida tarixiy voqeaga aylangan O‘zbekistonga g‘oyat muvaffaqiyatli davlat tashrifi o‘zaro munosabatimiz qay daraja mustahkam ekanini ko‘rsatdi. Xitoy yetakchisi ushbu tashrif arafasida “O‘zbek-xitoy munosabatining yorqin kelajagini birgalikda yaratish yo‘lida” sarlavhali maxsus maqolada o‘zaro ko‘p qirrali hamkorlik yuksak qadrlangani chuqur ramziy ma’noga ega. Xitoy rahbarining ushbu chiqishi butun mamlakatda keng munosabat bildirilib, qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi.

Si Szinpin yozganidek, “Xitoy va O‘zbekiston buyuk tamaddunga ega qadimiy davlatlar. Buyuk ipak yo‘li xalqlarimizning 2000-yildan ziyod vaqt davomidagi do‘stona aloqalaridan darak beradi. O‘zbekiston - Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan yirik davlat. Alohida ta’kidlash kerak, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o‘zbek xalqi Yangi O‘zbekistonni barpo etish sari buyuk yo‘lga tushib oldi. Turli sohalaridagi islohotlar va taraqqiyot sur’ati jadal tus oldi. Mamlakat mutlaqo yangi qiyofaga ega bo‘ldi, munosib hayot sharoiti yaratilmoqda, respublikaning xalqaro maydondagi mavqei sezilarli ravishda mustahkamlandi. Samimiy do‘st va har tomonlama strategik hamkor sifatida muvaffaqiyatlaringiz bizni chin yurakdan quvontiradi”[6].

Darhaqiqat, Si Szinpin ikki davlat hamisha bir-biriga yordam berishini ta’kidlaganida mutlaqo haq. Xitoy va O‘zbekiston ikki tomonlama asosda ham, SHHT va boshqa ko‘p tomonlama platformalar doirasida ham yaqin hamkorlik qilib kelmoqda, tashqi aralashuvga birgalikda qarshi turish, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka va narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda birga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston strategik aloqalarni yuksak qadrlaydi va Xitoyni doimiy ravishda ishonchli hamkor, yaxshi qo‘shni, ishonchli do‘st sifatida ko‘rib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Muvaffaqiyatli o‘tgan O‘zbekiston-Xitoy muzokaralari “Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasining Qo‘shma bayonoti”, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, raqamli iqtisodiyot, yashil rivojlanish, hududlararo ishbilarmonlik aloqalari, axborot va boshqa sohalarda hamkorlikka oid 15 hujjat Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi qardoshlikni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev Si Szinpinga Oliy darajadagi “Do‘stlik” ordenini topshirgani ham ikki mamlakat munosabati do‘stona muhitda rivojlanayotganidan dalolat.

O‘zbekiston “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining muhim ishtirokchisi. Ushbu yirik tashabbus doirasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi juda samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini alohida ta’kidlash joiz. Xitoy ko‘p yillardan buyon O‘zbekistonning

asosiy iqtisodiy hamkori mavqeini mustahkam saqlab kelmoqda. Bir qator davlatlararo, hukumatlararo, idoralarda bitimlar sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy asos yaratmoqda. Ikki mamlakat kompaniyalari ishtirokida sanoat kooperatsiyasi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport, farmatsevtika, telekommunikatsiya sohaslarida, qo'shma yuqori texnologiyali sanoat parklari tashkil etish loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi so'nggi yillarda 10 milliard dollardan oshdi. Muhim qo'shma loyihalar ilgari surilmoqda. "Xitoy – Markaziy Osiyo" gaz quvurining barcha 4 yo'lagi O'zbekiston hududidan o'tadi. Qamchiq dovoni orqali yurtimizdagi eng uzun temir yo'l tunneli foydalanishga topshirildi. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston avtomobil yo'lagi va Xitoy-Qozog'iston-O'zbekiston temir yo'lining o'tkazuvchanlik salohiyati e'tirof etilmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti Samarqand sammiti doirasida O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy temir yo'li qurilishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi uch tomonlama shartnoma imzolangan tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Ushbu loyiha Xitoydan O'zbekiston orqali Yevropa va Janubiy yo'lak orqali Fors ko'rfazi davlatlariga yuk tashish va ushbu yo'nalishlarda savdo geografiyasini kengaytirish, O'zbekistonni ichki davlatdan mintaqadagi muhim kommunikatsiya markaziga aylantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 2023-yil 18-19-may kunlari ushbu mamlakatga tashrifi o'zaro hamkorlikning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi, desak mubolag'a emas. Ayniqsa, Sian shahrida O'zbekiston – Xitoy biznes-forumining natijalarini alohida aytish joiz. Sababi Xitoyning 400 dan ortiq yirik kompaniyalari vakillari ishtirok etgan forum davomida qator kelishuvlar va shartnomalar imzolandi. Shuningdek, forum davomida Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari O'zbekistonda biznes yuritish uchun yaratilgan ijobiy tarkibiy o'zgarishlar va qulay sharoitlar haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishdi. O'zaro manfaatli sheriklikning istiqbolli yo'nalishlari sifatida avtomobilsozlik, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, "yashil energiya", qishloq xo'jaligi va meva-sabzavotlarni qayta ishlash sohalari belgilab olindi. Bu esa har ikki tomon uchun ham manfaatlidir. Tashrif doirasida Prezidentimiz Sian shahrida "Markaziy Osiyo — Xitoy" sammitida ham ishtirok etib, aniq taklif va muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ayniqsa, yangi iqtisodiy muloqotni shakllantirish va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, 2030-yilga borib mintaqada mamlakatlarining Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmini ikki baravar oshirish haqidagi tashabbusi anjuman ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida gumanitar almashinuvlar, ko'rgazmalar, konsert va

ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini muntazam o'tkazishni davom ettirish, ularga yoshlarni keng jalb qilish muhimligiga to'xtalar ekan, kelgusi yilda Yosh iste'dodlar forumini birgalikda o'tkazishni taklif qildi. Umuman olganda, Prezidentimizning Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning yuqori darajada rivojlanayotganidan hamda strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga sodiqlikdan dalolat beradi. Erishilgan natijalar esa O'zbekiston — Xitoy munosabatlarida yangi sahifa ochadi[7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekistonning yaqin va ishonchli hamkori hisoblanadi. Bugungi kunda ko'pqirrali va ikki tomonlama manfaatli munosabatlar rivoji yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy aloqalar, transport, kommunikatsiya va tinchlikni saqlash ya'ni Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Yana shuni xam qayd etish joizki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining XXR bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Binobarin, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida Xitoy bilan bo'lgan munosabatlar dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston-Xitoy aloqalarining hozirgi holati davlatlarimizning bir-birlari bilan uzoq muddatli strategik hamkor ekanliklaridan dalolat beradi. Bu esa, ikki mamlakat xalqlarining milliy manfaatlariga va hozirgi zamon talablariga to'la mos keladi. Ikki mamlakat o'rtasidagi muloqotlar, aloqalar izchil rivojlanib borayotgan xalqaro munosabatlar tarixida muhim ahamiyat kasb etadi va kelajakda yanada samarali natijalarga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B.408.
2. Usmonova N. O'zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari.// Xalq so'zi. 118 (3393) – son, 2004-yil, 4-iyun.
3. Muqimov S. Xitoy ohanglari yangraydi.//Xalq so'zi. 122 (3397)-son. 2004-yil, 10-iyun.
4. Ildirov U. O'zbekiston-Xitoy do'stona munosabatlari rivojining mustahkam zaminlari. Sharq mash'ali. 2013 – №1 – B 51.
5. <http://sputniknews-uz.com/infographics/20170512/5387097/Ozbekiston-va-Xitoyning-siyosiy-savdo-munosabatlari.html>
6. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-hitoy-munosabatlari-ulkan-istiqbolga-ega_416995
7. <https://uzlidep.uz/news-of-party/14387>